

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING O'QUV TARBIYAVIY MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI**

Andijon davlat pedagogika instituti
pedagogika - psixologiya kafedrasи o'qituvchisi
Tojiboyeva Nodira Tursunaliyevna

ANNOTATSIYASI

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning o'quv tarbiyaviy madaniyatini rivojlantirishni pedagogik – psixologik mexanizmlarini oshirishga qaratilgan jarayon innovatsion yondashuvlar bilan boyitilganligi; bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini tizimli shakllantirishga sharoit yaratilganligi; oliv pedagogik ta'lim muassasalari talabalari kasbiy mahoratini shakllanganlik mezonlari aniqlanganligi va muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi ilmiy- tavsiyalar ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: kasbiy madaniyat,o'quv tarbiyaviy madaniyat, fasilitatsion,antropologik, akmeologik modellar,pedagogik yangiliklarga moslashuvchanligi, mobilligi, aksiologik munosabatini tarkib toptirish, autopedagogik tizim, innovatsion ta'lim,kreativligini rivojlantirish, innovatsion layoqatlilik,kompetentsiyaviyy va akmeologik yondashuvlar, didaktik mexanizm

АННОТАЦИЯ

В данной статье процесс, направленный на повышение педагогико-психологических механизмов развития образовательной культуры будущих учителей, обогащается инновационными подходами; созданы условия для планомерного формирования профессиональной компетентности будущих педагогов; Определены критерии сформированности профессиональных умений студентов педагогических высших учебных заведений и выявлены научные рекомендации, обеспечивающие положительное решение проблемы.



Ключевые слова: профессиональная культура, образовательная культура, фасилитативные, антропологические, акмеологические модели, адаптивность к педагогическим нововведениям, мобильность, формирование ценностной установки, самопедагогическая система, инновационное образование, развитие креативности, инновационные способности, компетентностно-акмеологические подходы, дидактический механизм.

Jahonda ta'lim bugungi kunda barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil sifatida ta'kidlanib, bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning kreativ modellari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Innovatsion faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlaridan keng foydalanish orqali ularda innovatsion kompetentlikni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik yangiliklarga moslashuvchanligi, mobilligi, aksiologik munosabatini tarkib toptirishning autopedagogik tizimini ishlab chiqish, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim muhitini yaratish orqali talabalarning kreativligini rivojlantirish, bo'lajako'qituvchilar shaxsi va innovatsion layoqatliliginи kompetentsiyaviyi va akmeologik yondashuvlar asosida uzlusiz rivojlantirishning didaktik mexanizmini takomillashtirish ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'quv tarbiyaviy pedagogik madaniyat - bu ma'lum bir malaka darajasiga erishish emas, balki doimiy o'zgaruvchan ta'lim sharoitida o'z madaniy muvofiqligi va madaniy o'ziga xosligini o'z-o'zini yangilash holatidir .

O'quv tarbiyaviy madaniyat nafaqat eng yaxshi madaniy me'yorni topish qobiliyati, balki ko'proq va ko'proq yangi madaniy namunalarni sinab ko'rish istagidir. Xususan uning ko'rsatkichlari (uning turli ko'rinishlarida) ta'limning holati va sifati, jamiyatdagi ta'lim darajasi, muayyan mакtabda ta'limni tashkil etish madaniyati, alohida o'qituvchining mahoratidir.

Respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish, ta'lim muassasalarida edvayzerlik



faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, ta’limiy jarayonlarda qo’llaniladigan fasilitatsion, antropologik, akmeologik modellarni takomillashtirishning me’yoriy asoslarini ishlab chiqish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtièjlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish”³⁰[1] pedagogika oliy ta’lim muassalarida bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashda ham muhim o’rin tutadi. Shu bois, bo’lajak o’qituvchilarda innovatsion kompetentlik komponentlari uzlusiz rivojlanishning optimal variantlarini tanlash va uning amaliyasoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi axborotlashtirish sharoitida bo’lajak o’qituvchilarning o’quv tarbiyaviy madaniyatini rivojlantirishning muhim xususiyatlardan biri bo’lgan o’quv-metodik ta’minotini xalqaro talablarga muvofiq modernizatsiyalash, ularning kasbiy mahoratini shakllantirish va oshirishda psixologik, pedagogik omillarini aniqlashtirishga doir ko’plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonga har tomonlama keng qamrovida e’tibor qaratish, kasbiy zaruriy sifatlarni mujassam rivojlantirish orqali talablar pedagogik mahoratini oshirishga yangicha yondashish masalalarini tatqiq etish pedagogika fanining dolzarb muammolari sirasiga kiradi.

Bugun o’quv tarbiyaviy madaniyat nafaqat ijtimoiy turmush (hayot) voqeasi vainson faoliyati sohasi sifatida, balki, uning individda rivojlanish natijasi deb qaralmoqda. Bu esa o’zida shaxsning fundamental qadriyatlarini mujassamlashtiradi, modomiki, u organizm faoliyatining biologik potensialini ta“minlaydi, hamohang rivojlanishga zamin yaratadi, ijtimoiy faollikning namoyon bo„lishiga ko„maklashadi, shaxsningtalant va qobiliyatlarini ruyobga chiqarish yo„lida xizmat qiladi. Bunday yondashuv kasbiy madaniyatni shaxsning ma“lum saviyadagi jismoniy rivojlanishi va o„qimishlilagini xarakterlovchi turli faoliyat turlari vashakllarida bu darajaga erishish usullarini anglaganligi (kasbiy, ijtimoiy, oilaviy, kasbiy madaniyatsport va boshqalar), sifatli, tizimli, dinamik ta“lim deb hsoblashga imkon yaratadi.³¹

³⁰ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagı —O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risidagi PF-4947-sون Farmoni – O’zbekiston Respublikasi Qонун hujjatlari to’plamli, 2017 y. 6-сон, 70-modda.

³¹ Xamraev I.T. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashning o„ziga xos xususiyatlari / I.T.Xamraev //



Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bo'lajak o'qituvchining o'quv tarbiyaviy madaniyatini rivojlantirish bo'yicha foydalaniladigan texnologiyalar bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning vositalaridan biri sifatida xizmat qilish imkonini beradi. Shunday ekan o'qituvchi o'zining ijod mahsulini ko'rish uchun yillab mehnat qilishi kerak. O'qituvchi faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'quv tarbiyaviy madaniyatni rivojlantirish bu faoliyat o'zining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ham turlicha bo'ladi. Haqiqiy fidoyi o'qituvchilar o'z faoliyatida eng yaxshi natijalarga erishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-sonli "Umumiy o'rtta, o'rtta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-ton.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y, 06/19/5712/3034-ton.
3. Pedagogik madaniyatga kirish / Ed. E. V. Bondarevskaya. - Rostov-na-Donu, 1995 yil.
4. Isaev I.F., Sitnikova M.I. O'qituvchining ijodiy o'zini-o'zi anglashi: madaniy yondashuv. - Belgorod; M., 1999 yil.
5. Kan-Kalik V.A., Nikandrov K. D. Pedagogik ijod. - M., 1990 yil.
6. Levina M.M. Kasbiy pedagogik ta'lim texnologiyalari. - M., 2001 yil.
7. Lixachev BT Ta'lim qadriyatlari nazariyasi va tarixiga kirish. - Samara, 1997